

Turdiyeva Hulkar Kamilovna,
Toshkent davlat Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti
o'qituvchisi

**Xorijiy tillarni o'qitishda sotsiolingvistik va pragmatik masalalar:
Xushmuomalalikning ifodalanishi
(o'zbek, fors, yapon tillari qiyosida)**

ANNOTATSIYA

Tadqiqot o'zbek, fors va yapon tillaridagi Politeness – xushmuomalalikning pragmatik qiyosiy tahliliga bag'ishlangan. O'zbek, fors va yapon madaniyatlariga mansub kishilarning o'zaro muloqotini to'g'ri olib borish va xushmuomalalik qoidalarini to'g'ri tushungan holda, unga amal qilish masalalari o'rganildi. Uch tilda muloqotdagi xushmuomalalikdagi o'ziga xos jihatlari, Pozitiv feys va negativ feys nazariy manbalar va so'rovnomalar orqali aniqlandi.

Kalit so'zlar: Politeness - xushmuomalalik, ta'arof, og'zaki muloqot, Fors, O'zbek, Yapon, madaniyat, sotsiologiya, sotsiolingvistika, FTA (face threatening acts) pozitiv feys, negative feys.

Mavzuning dolzarbligi: Muloqotga kirishish, suhbatlashish inson hayotining muhim qismi bo'lib, aynan suhbatning qanday usulda olib borilishi muvaffaqiyatsizlikning ham, beqiyos muvaffaqiyatning ham asosiy sababchisi bo'lishi mumkin. Kommunikatsiya insonlar hayotida eng muhim rol o'ynaydigan faoliyatdir. Turli madaniyatlarga mansub kishilar muloqotini to'g'ri olib borish va xushmuomalalik qoidalarini to'g'ri tushungan holda, unga amal qilish sotsiolingvistikada hamon chuqurroq tadqiqotlarga muhtoj dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda.

Bir millatda ehtirom belgisi sifatida qabul qilingan tushuncha boshqa bir mamlakatda butunlay aksi, qo'pollik tushunchasini ham berishi mumkin.

Yapon olimi Usami Mayumi “Bir tildagi xushmuomalalikni ifodalovchi jumlar boshqa bir tilga to'gridan tog'ri tarjima qilinib bo'lmasligi mumkin. Lekin jamiyatdagi hurmat va qo'pollik tushunchalarini til o'rganuvchilar yaxshi ajratib olmasalar, bu bir xalq ikkinchi xalqni o'zi bilmagan holda haqoratlashiga, tushunmovchilikga, va hatto konfliktga olib kelishini ko'p misollar bilan dalillash mumkin.” deb aytadi.

Xitoy tilshunosi Jiang Zhu ta'kidlashicha, “O'zaro xalqlararo muloqotda madaniyat tafovutlari nutq uslubida, nutqni qo'llash qonun qoidalarida muhim rol

o'ynaydi. Inson odatda o'zining madaniyati printsiplaridan kelib chiqib o'zini tutishi va o'z madaniyati qoidalariga asoslanib boshqa odamlarning xulq-atvorini baholaydi. Bu holat tilshunoslikda "pragmatic transfer" (pragmatik ko'chish) deb nomlanadi. Aynan shu pragmatik ko'chish oqibatida osongina muvaffaqiyatsizlikga yuz tutilishi va o'zaro madaniy muloqotda tushunmovchiliklarga duch kelinishi mumkin." Abdulla Qahhor ta'biri bilan aytganda "So'z atomdan kuchli".

Mavzu maqsadi va vazifalari: Mazkur tadqiqotdan O'zbek, fors va yapon tillarida og'zaki xushmuomalalikni imkonqadar batafsil o'rganish bag'ishlangan bo'lib, nazariy va amaliy tadqiqotlar o'tkazish, O'zbekiston, Eron va Yaponiya madaniyatidagi o'xshashlik va farqlar ustida izlanishlar olib borish vazifalarini o'z oldiga qo'ygan.

Bir necha yildirki, O'zbekistonda sharq madaniyati, jumladan fors va yapon tili, adabiyoti, madaniyati bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib boriladi. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan har ikkala sharq mamlakatining kompaniyalari, loyihalari soni ortib bormoqda. Yildan yilga O'zbekiston, Eron va Yaponiyaning yosh kadrlar uchun taqdim etayotgan ta'lim dasturlari, karyera imkoniyatlari, tadqiqot dasturlari va shu kabi loyihalar soni ortib bormoqda. Shu bilan birga xorijliklarning ham o'zbek tili, madaniyatiga qiziqish bilan qarab kelmoqdalar.

Mazkur til o'rganuvchilari davlatlarning o'z madaniyatidagi ijtimoiy muloqotning o'ziga xos taraflari, ya'ni xushmuomalalik qoidalarini anglashda qiyinchiliklarga, va hatto qiziqarli yoki noqulay holatlarga duch kelishlari mumkin.

Ba'zi o'zbeklar xorijliklar bilan muloqotga kirishganda, xorij davlatlarining ehtirom qoidalarini yaxshi angalamagan holda, muloqotda xushmuomalalik xatolariga yo'l qo'yib, suhbatdoshni hayron qoldirishlari, va hatto hafa qilib qo'yishlari mumkin O'zbeklar xorijliklarni har ko'rganda Qalaysiz? (Ahvolingiz qanday?) deb so'rashlari, "Turmushga chiqqanmisiz?/Oilalimisiz?", "Necha yoshsiz?", "Farzandlaringiz bormi?" kabi yapon madaniyatida hurmatsizlikni ifodalovchi shaxsiy savollar berishlari, yoki aksincha, ba'zi xorijliklarning o'zbeklar tomonidan keltirilgan maqtovni inkor qilaverishi, masalan, "Bugun ochilib ketibsiz", "Ingliz tilida juda yaxshi gapirar ekansiz", "Kiyimingiz juda chiroyli" kabi o'zbeklar tomonidan aytiladigan xushomad yoki maqtovlarga yaponlar "Yo'g'e nimalar deyapsiz", "Unday holatning o'zi yo'q" kabi maqtovni inkor qiluvchi javoblar berishi har doim ham "juda kamtar ekan" degan tassavurni emas, "buncha o'zini pastga uradi", "mening fikrimni noto'g'riga chiqarmoqda" (O'ta kamtarlik - manmanlikdir) degan o'ylar bo'lishi mazkur 3 ta millat vakillari bilan o'tkazgan intervyular yordamida aniqlandi.

Har uch mamlakatda ham xushmuomalalik insonlarning ijtimoiy mavqei, yoshi, munosabatlar masofasi va shu kabi masalalarni hisobga olgan holda ifoda etiladi.

Bu mamlakatlardagi odamlar o'rtasida to'g'ri muomalaga kirishish printsiplari, tavsiyalari tadqiqot natijalari asosida aniqlandi.

Tadqiqot uchun O'zbek, Fors va Yapon madaniyatining tanlanishiga sabab, Eronliklar bilan birga ish yuzasidan ko'p marta muloqotga kirishganimda, hamda Yaponiyada tahsil olayotganimda, mazkur millat vakillarining xushmuomalalik printsiplariga ahamiyat berib, qo'llanilish vaziyatlarini kuzatib borar ekanman, O'zbek xalqi madaniyati bilan mushtarak tomonlari bir hayratga solsa, bizning madaniyatdan butunlay farq qiladigan, agar tarjima qilinsa, tamoman teskari yoki boshqa ma'no anglashilib qolishi ham tadqiqot o'tkazish ishtiyoqini tug'dirgan. Huddi shu kabi, yaponiyalik va eronliklar bilan xushmuomalalik bo'yicha suhbat o'tkazganimizda, o'xshash tomonlar bilan birga, xushmuomalalik qoidalarini yaxshi anglamay, qiyinchliklarda qolganlarini ham aniqladik.

O'zbekiston, Eron, Yaponiya – har uchala mamlakatda Osiyo o'lkalariga hos bolgan sharqona qadriyatlar, madaniyat an'analari, oila, milliylik, jamiyatda insonlarning muloqotidagi hurmat, yosh va holatga qarab hurmat darajalarini qo'llash qoidalari mushtarakdir. O'xshash taraflar bilan birga, qiziqarli, hamda farqli bo'lgan jihatlarining mavjudligi tadqiqot doirasini yanada kengaytiradi.

Mavzuning o'rganilish darajasi: Mazkur mavzu “Xushmuomalalik masalalari” jahon tilshunosligi, ayniqsa, Yapon, xitoy tilshunosligida 1920 yillardan boshlab, jahon tilshunosligida 1960 yillardan beri “hech eskirmaydigan” dolzarb mavzu va qizg'in baxs sifatida o'rganilib kelinmoqda. Jahon olimlari tomonidan shu kungacha amalga oshirilgan tadqiqot mualliflaridan kanadalik **Erving Goffman (1967)** birinchi marta **face (feys)** tushunchasini ilgari suradi. Kaliforniyalik **Robin Lakoff (1973)** Yevropada xushmuomalalik nazariyasini yaratib, xushmuomalalik - Politeness 3 ta tamoyildan iborat deb ta'kidlaydi: “Don't impose or Distance” (Bosim o'tkazmang va uzoq masofa saqlamang), “Give option or Deference”(Tanlash xuquqini bering va ehtirom ko'rsating), va “Make audience feel good or Camaraderie” (Suhbatdoshingizga do'stona muhitni his qilishiga imkon bering). Amerikalik **Brown** va Britaniyalik **Levinson (1987)** Xushmuomalalikda ijobiy “pozitiv” (ma'qullanishga bo'lgan ehtiyoj) va salbiy “negative” xushmuomalalik (bosim o'tkazilmaslikga bo'lgan ehtiyoj) masalalari nazariyasini yaratdilar. Shuningdek, **Fraser (1990)** (“Perspective on Politeness”- Politeness istiqbollari) tadqiqoti Brown va Levinson tomonidan ilgari surilgan xushmuomalalik printsiplarini tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Bir necha yuz yil avval fors tilida bitilgan manbalarda ta'rif (xushmuomalaik) ifodalari kuzatsak-da, mazkur sohaning nazariy tadqiqiga o'tgan asrdan boshlab kirishilgan. **Keshavarz (1988, 1993)** murojaat etish atamalarining hurmat va oddiy darajalari ustida ish olib borgan. **Hosseini (2009)** ikki suhbatsoh o'rtasidagi mulozamat (ta'rif)ning o'zaro ta'sir qilish kuchini dalillab beradi.

Nanbaksh (2011, 2012) Eron jamiyatida til qo'llanilishi va xushmuomalalik qoidalari o'rtasidagi aloqani tekshiradi. Bundan tashqari quyidagi tadqiqotlar mazkur sohaning o'rganilish darajasining oshishiga hissa qo'shadi: **Hodge** 1957, **Assadi** 1980, **Hillman** 1981, **Beeman** 1986, **Raffie** 1992, **Asdjoti** 2001, **Koutlaki** 2002, **Parvaresh** va **Eslami** 2007, **Sharifian** 2011, **Sahragard** 2011.

Fors taorifining pragmatik tahlilini juda kam tadqiqotlarda kuzatamiz. Mazkur sohadagi tadqiqotlarning asosiy qismi taorifning kelib chiqishi, lingvistik tahliliga qaratilgandir.

Yapon tilshunoslaridan **Tokieda (1941)** (Kokugo gaku genron –Yapon tilshunosligida nutq), **Tsujimura (1991)** (Keigono Youhou – Ehtiromning ifodalanishi); **Yamaguchi (2004)** (Nihongo no Ronri: Kotobani arawareru shisou-Yapon logikasi: Tilda aks etgan g'oyalar); **Ono Masaki**¹ kabi olimlar tadqiqotlari ham mazkur sohada salmoqli natijalarni ko'rsatadi.

O'zbek tilshunoslaridan **Dadaboyeva N.** “Tilda inkor kategoriyasining aks etishi”; **Iskandarova Sh.M.** “O'zbek nutqi odatining muloqot shakllari”, **Mo'minova Aziza (2015)** “Uzbek Nutq etiketi: “Siz” va “Sen”ning ifodalanishi kabi tadqiqotlar mavzuning kichik bir sohalarini o'rgangan bo'lib, o'zbek tilshunosligida mazkur mavzu batafsil izlanishlar talab etadi.

Xushmuomalalik mavzusi bo'yicha o'zbek tilshunosligida 2 ta dissertatsiya ishi kuzatildi. **Hojiyeva Halima Yahyoevna** o'zining “O'zbek tilida hurmat maydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati” mavzusidagi kandidatlik dissertatsiya ishida hurmat maydoni vositalari struktur-semantik-funksional jihatdan tahlil qilinadi. **Hojiyeva** yozishiga ko'ra, O'zbek tili grammatikasiga doir ishlarning ko'plarida hurmat tushunchasi umuman tilga olinmaydi. **Prof. A. G'ulomov (1944)** hurmat ma'nosi otning ko'plik qoshimchasi bilan ifodalanishini aytgan bo'lsa, **M. Asqarova, G'. Abdurahmonov, Sh. Rahmatullayev, A. Hojiyev, Y. Tojiyev** kabi olimlar tomonidan hurmat – egalik qo'shimchalariga ham hosligi ko'rsatiladi. **Hojiyeva** o'z tadqiqotida hurmat lisoniy vositalarini tilning turli bo'limlariga mansubligini tadqiq qiladi: fe'lning hurmatga dahldor shakli (shaxs, son, hurmat qo'shimchasi); fe'lning o'zak-negizi; otning egalik shakli; otning o'zak-negizi; olmosh; son; sifat; ohang; kelishik qo'shimchalari; egalik qo'shimchalari va h.z.

Tadqiqotning yangiligi: mavzuning o'rganilganlik darajasini tadqiq qilar ekanmiz, bu sohada Yevropa va Uzoq sharq salmoqli samaralarga erishganini kuzatamiz. Eronda taorifning pragmatik tahlili, taorifda pozitiv va negativ feysning ifodalanishi ustidagi izlanishlar juda kam bo'lsa-da mavjuddir. O'zbek tilshunosligida Politeness (xushmuomalalik) nazariyasi yangi mavzu bo'lib, bu borada tadqiqot ishlari kuzatilmadi. Xushmuomalaikning millatlararo (o'zbek, fors, yapon) muloqotidagi pragmatik tahlili, ulardagi feys tushunchasi, o'xshash

va farqlari, kommunikatsiyaga kirishilganda ehtiyotkorlik tavsiyalari fanda birinchi marta ko'rib chiqilmoqda. Tadqiqot uchun jonli kuzatuv (mehmondorchilik, maqto'v, savdo-sotiq vaziyatlarida ifoda etiladigan taorif(mulozamat)); uch millat vakillaridan olingan virtual va jonli so'rovnoma asosida natijalar olinishi yozma manbalarda ko'rsatib o'timagan qiziq yangiliklarni ham vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Eroncha taorif haqida tushuncha:

Wikipedia²da yozilishicha, **Ta'arof** (Persian: تعارف) so'zi ijtimoiy xulq-atvor, haqiqiy yoki sohta mulozamat, xushmuomalalik ma'nolarini anglatadi. Taomga taklif qilinganda ham, birdaniga rozi bo'lmay, bir necha marta sohta rad etish taorifdir.

Yaponcha "keigo" haqida tushuncha:

Keigo (so'zma-so'z tarjima qilinsa, "hurmat tili") suhbatdoshga nisbatan hurmat va xushmuomalalikni ifodalaydi. Keigoni o'z o'rnida to'g'ri qo'llash juda muhim. Bunda o'zbek va fors tili kabi suhbatdoshning unvoni, yoshi va darajasi muhim ahamiyatga egadir. Keigo uch bo'limga bo'linadi: Sonkeigo (baland hurmat darajasi), Teineigo (hurmat darajasi), Kenjougo (o'zini pastga urish darajasi).³

O'zbekcha xushmuomalalik haqida tushuncha:

O'zbek tilida bu mavzu chuqur o'rganilmaganligi sababli, taorifga ekvivalent bo'la oluvchi ba'zi so'zlarga izohli lug'atdan javob topdik.

Mulozamat⁴ - Kishining ko'nglini olish uchun ko'rsatilgan iltifot; e'zoz-ikrom, takalluf.

Takalluf⁵ - Hurmat-extirom va e'-zoz-ikrom bilan qilingan muomala, mulozamat

Xushmuomalalik⁶ - Muomalasi, gap-so'zlari, xatti-harakati yoqimli; xushfe'l.

Face haqida tushuncha

Yevropa olimlari Brown va Levinson feys tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradilar. Politeness (xushmuomalalik) ikki ehtiyojni o'z ichiga oladi. Negativ o'z-o'zini hurmat qilish ehtiyoji (negative self-respect needs) deganda bosim o'tkazilmaslikka bo'lgan ehtiyoj tushuniladi. Pozitiv o'z-o'zini hurmat qilish ehtiyoji (positive self-respect needs) deganda ma'qullanishga bo'lgan ehtiyoj tushuniladi.

Pozitiv feys (Positive Face) – suhbatdoshda yaxshi tasavvur qoldirishga intilish, ma'qullanish ishtiyoqi va suhbatdoshning ham ma'qullanayotganini ko'rsatish.

• Suhbatdoshga xushomad qilish “what a lovely dress” – “ko'ylagingiz buncha chiroyli”;

² <https://en.wikipedia.org/wiki/Taarof>

³ 実用日本語文法。筑波大学。グローバルコミュニケーション教育センター。26–32ページ。

⁴ <https://uz.wiktionary.org/wiki/mulozamat>

⁵ <https://uz.wiktionary.org/wiki/takalluf>

⁶ <https://uz.wiktionary.org/wiki/xushmuomala>

- Suhbatdoshning ahvoli haqida qiziqish “how are you?” – “qalaysiz?”;
- Suhbatdosh bilan o'tayotgan vaqtdan zavqlanayotganingizni ko'rsatish “this is nice” – “maza qildim siz bilan gaplashib”;
- Do'stona imo-ishoralar qilish;
- Suhbatdoshga qiziqish bildirish (qiziqish, hamdardlik, hamfikrlik);
- Umumiy mavzulardan kelishuvni qidirish (har ikkala tomonga ma'qul bo'ladigan, havfsiz suhbat mavzusi tanlash);
- Kelishmovchiliklardan qochish (rozi bo'lgandek o'zini ko'rsatish, kelishuv uchun yolg'ondan foydalanish);
- Hazil-mutoyiba qilish;
- Har ikki tomon tenglikni his qilishi uchun oddiy og'zaki suhbat usulida gaplashish.

Negativ Feys (Negative face) – bosim ostida qolmaslikga bo'lgan xohish va boshqalarni ham bosim ostida qoldirmaslik, o'zgalarning hayotiga aralashmaslik va ularning ham aralashishiga yo'l qo'ymaslik, munosabatlarda erkinlikni his qilish ishtiyoqi. Bunda til bilvosita, uzr so'rash atamaları qo'llangan holda va ehtirom bilan ifoda etiladi.

- Biror narsa so'rashdan oldin uzr so'rash;
- Pessimistik ruhiyatni ko'rsatish “I know this is a stupid idea....” – “bilaman bu ahmoqona fikr,...”
- Ulug'lash “yes Sir” - “Xo'p bo'ladi janob”
- Uzr so'rab gap boshlash “sorry to bother you, but...” - “bezovta qilayotganim uchun uzr, lekin..”
- Bilvosita gapirish, fikrni to'g'ridan-to'g'ri ifodalamaslik. “I don't seem to have a pen with me” - “Menda ruchka yo'qga o'xshaydi”
- Tanlov taklif qilish “could you...” – “-b yubora olasizmi, iltimos”.

Suhbat chog'ida qaysi feysni qo'llab gapirish millat mentaliteti, an'analari, qadriyatlariga bog'liq bo'ladi. Masalan, oila munosabatlarida o'zbeklarda oila a'zolar yosh va darajaga qarab o'zaro sizlab gapirish holatida negative feys yetakchilik qilsa, eronliklar va yaponiyaliklarda yaqin qarindoshlar bir-birini sansirab muloqot qilish holatida pozitiv feys namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning amaliy samaradorligi: Mavzuning qiyosiy jihatdan o'rganilishi nafaqat bir millat tilshunosligi, sotsiologiyasi va madaniyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi, balki solishtirilayotgan millat tilining o'ziga xos tomonlari ham inobatga olinib, tilshunoslar, xorijiy til o'qituvchilari, til o'rganuvchi xorijliklar, sayohatchilar, qiziquvchilar uchun muhim sotsiologiyaviy manba bo'lib xizmat qila oladi. Bu tadqiqot asosida til o'rganuvchilar, sayohatchilar, diplomatlar uchun muhim bo'lgan Xushmuomalalik (Politeness) qoidalari bo'yicha qo'llanma yaratilishi ham, mazkur mavzuning kelajakda chuqurroq tadqiq etilishiga sabab bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqod metodi: Og'zaki nutq xushmuomaligiga bag'ishlangan tadqiqot jonli tarzda O'zbekistonda va Yaponiyada, virtual tarzda Eronda o'tkazildi. O'zbek va Yapon tili vakillari bilan suhbatlashish, ularning o'zaro suhbatini kuzatish, so'rovnomalar o'tkazish natijasida suhbatni o'ziga qamrovchi uchta holatda har uchta mamlakatda o'zaro madaniy anglashilmovchiliklar bo'lganini aniqladik. 1) Mehmondorchilik/Homestay; 2) Xushomad/Maqtov; 3)Sotuvchi va xaridor suhbatlari.

Kuzatuv fors (Atashbas (Cease fire); Bachehaye asemani (Children from the Heaven); Marmulak (Spider)); yapon (ごくせん⁴ , 花より団子); o'zbek ("Osmondagi bolalar", "Firibgar", "Sabo", "Kirakash") tilidagi filmlar va jonli muloqotlarda ishtirok etish, hamda kuzatish asosida amalga oshirildi.

So'rovnomada 180 nafar ishtirokchi 60 ta o'zbekistonliklar, 60 ta eronliklar va 60 ta yaponiyaliklar qatnashdilar. Savollar o'zbeklarga o'zbek tilida, eronliklarga fors tilida, yaponlarga yapon tilida taqdim etildi. So'rovnoma internet dasturi - google.form yordamida, shuningdek, yuzma-yuz tarzda o'tkazildi. So'rovnoma 3 qismdan iborat: 1)Mehmondorchilik/Homestay ; 2)Xushomad-Maqtov; 3)Sotuvchi va xaridor suhbatlari.

So'rovnoma tuzishda SHIH Pei Chun⁷、 Sugito Seiju、 Ozaki Yoshimitsu⁸ning so'rovnoma o'tkazish metodlaridan foydalandi.

Tadqiqot qismlari:

1. Kuzatuv
2. So'rovnoma

№	Manbalar	O'zbekiston	Yaponiya	Eron
1	Kinofilmlar	"Osmondagi bolalar", "Firibgar" "Sabo", "Kirakash"	「ごくせん 4」 Gokusen 4	Atashbas (O'tni o'chirish); Bachehaye asemani (Osmon bolalari); Marmulak (O'rgimchak)

⁷ SHIH Pei Chun. A Comparison of Politeness Strategies in Japanese and Cantonese. (The University of Birmingham March 2009). 言語行動における配慮の諸相 (Various aspects of consideration in verbal behavior. 国立国語研究所 (National Institute for Japanese Language) 2006.

2	YouTube kanalidagi videolar	—	Japanization、 gonihon ⁵ 等	Learn Persian (Farsi) with Chai and Conversation ⁹ ; - What is Taarof? - Persian Culture ¹⁰
3	Tadqiqotchi tomonidan olingan videolar	“O`zbek xonadoni” “Bozorda”, “Transportda”	-	—
4	Kuzatish	Jonli suhbat kuzatuvi	Jonli suhbat kuzatuvi	Jonli suhbat kuzatuvi

So'rovnoma ishtirokchilari profili:

60 nafar *yaponiyaliklar*: - 24 nafar erkaklar- 40%, 36nafar ayollar- 60%; 20dan 73yoshgacha; Kanto (Yaponiya hududi) doirasida yashovchilar;

60 nafar *o'zbekistonliklar*: - 29 nafar erkaklar- 48,3%, 31nafar ayollar- 51,7%; 18 dan 55 yoshgacha; O'zbekiston hududida yashovchilar;

60 nafar *eronliklar*: - 31 nafar erkaklar – 51,7%, 29 nafar ayollar -48,3%; 20 dan 58 yoshgacha; Eron (Tehron, Isfahon) hududida yashovchilar.

Natijalar tahlili:

Mehmondo'stlik


O'zbeklar:

⁹ <https://www.youtube.com/watch?v=u5oX2n1-diA>

¹⁰ <https://www.youtube.com/watch?v=qSPI8r3rIkW>

Uyingizda mehmon bor. U dasturxonigizdagi taomlardan uncha tanovul qilmayapti. Bu holda mehmoningizga nima deysiz?

(60 responses)




- "Olib o'tiring" deb 5-10 marta aytaman.
- "Olib o'tiring" deb 1-2 marta aytaman.
- Hech narsa demayman, yeyish yoki yemaslik mehmonning o'z xohishiga bog'liq.
- Yemasangiz hafa bo'laman. Bularni siz uchun pishirdim-ku.
- Other

Yaponlar:


家にお客さんがいます。食事中だがお客さんはあまり食べていません。お客さんに何と言いますか？

(60 responses)



- 「どうぞ召し上がってください」と何度も言います。(5-10回)
- 「どうぞ召し上がってください」と1回とか2回言います
- 何も言いません。食べるかどうか食べないことはお客さんの選択です
- 「もし食べないなら悲しくなります。____さんのためにこの料理を作りましたよ。」と言います
- Other

Eronliklar:



- I would say "Please, help yourself" for several (5-10) times
- I would say "Please, help yourself" for 1 or 2 times
- I would say nothing. It is guest's choice to eat or not to eat.
- I would say "I will be sad if you don't eat, I cooked these meals for you."

“Olib o’tiring” deb 5-10 marta aytaman” degan javob o’zbeklarda 48,3% va yaponlarda 0%ni tashkil etdi. Olib o’tiring” deb 1-2 marta aytaman” degan javob o’zbeklarda 21,7 % va yaponlarda (「どうぞ召し上がってください」 [douzo meshiagatte kudasai]) 73,3%ni ko’rsatdi. “Hech narsa demayman” javobi o’zbeklarda umuman kuzatilmadi, yaponlarda esa (何も言いません。食べることもか食べないことはお客さんの選択です- nanimo iimasen. taberukoto toka tabenai kotowa okyakusanno sentaku desu) 11,7%ni tashkil etdi. “Yemasangiz hafa bo’laman” javobini 23,3% nafar o’zbek ishtirokchilar tanlaganlar, yaponlarda bu javob tanlovi kuzatilmagan.

Eronliklarda esa mulozamat o’zbek xalqidan ham kuchliroq darajada ekanligini natijalar bilan asoslash mumkin. Javob beruvchilarning deyarli 70% i “Yemasangiz hafa bo’laman, ahir buni siz uchun pishirdim” (ناراحت هضم. من طن غذا رام خصوص شام) (Narahat misham. Man in ghazara makhsuse shoma pokhtam) tanlagan bo’lsalar, 30% ishtirokchilar “Marhamat oling” deb 5-10 marta aytishlarini so’rovnomamizda ta’kidlaganlar. (قبلت عارف نیت، لطف ابرار علی، قیادت عارف نیت) (Lotfan befarmiid, qabele taarof nist). “Olib o’tiring” deb 1-2 marta aytaman” va “Hech narsa demayman” javoblari eronlik ishtirokchilar javoblarida 0% ni ko’rsatdi.

Yaponiyaliklar mehmonga o’z madaniyatlaridagi “bosim o’zkazmaslik” prinsipiga amal qilib, 1-2 marta “oling, yeng” deb aytsalar, o’zbeklarda va eronliklarda bu ibora qancha ko’p aytilsa, shunchalik hurmat (Poiteness)ni ifodalashini aniqladik. Yaponiyada taklif qilingan taomni ohirigacha yemaslik, tatib ko’rmaslik hurmatsizlik sanalgani bois, O’zbekistonga kelgan yaponiyaliklar o’zbek madaniyati emas, o’z madaniyatlariga amal qilib, o’zlarini majburlab tanovul qilganlari, bosim ostida qolgandek o’zlarini noqulay his qilganlari ochiq suhbatlar yordamida aniqlandi. Aksincha, Yaponiyaga borgan o’zbeklar o’zbek madaniyati tushunchalaridan kelib chiqib, “Yaponlarni uncha mehmondo’st emas” degan noto’g’ri tushunchaga borganlarini ham aniqladik. Eronliklar bilan mehmondorchilikda bo’lgan yaponlar bilan suhbat o’zkazganimizda, eronliklar haqida “haddan tashqari mehmondo’st. Agar ularning hatti harakatlarini yaponlarda ko’rsak “mehmonning emas, mezbonning xohishi muhim ekan” degan tasavvurga borish mumkin” deb ta’rif berdilar.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, har uch mamlakatda ham o’ziga xos xushmuomalalik, muloyimlik qoidalari mavjud bo’lib, o’zaro keskin farq qiluvchi yoki o’xshash tomonlarga ega.

Mehmondorchilikda yaponlardan mulozamat kutib o’tirilmasligi, o’zbek va forslarning mulozamatini to’g’ridan-to’g’ri tushunishga yo’l qo’yilmaslik maqsadga muvofiqdir. Bunda yaponlarda *negativ feys* (bosim o’tkazmaslik) va eronliklar va o’zbeklarda *pozitiv feys* (suhbatdoshda yaxshi taassurot qoldirish) namoyon bo’ladi.

Xushomad va maqtov

Eronliklar madaniyatida suhbatdoshga xushomad qilish, uni maqtash, ko’klarga ko’tarish, o’z o’rnida o’zini o’zi pastga urish taorifning asosiy ko’rinishlaridandir. Suhbatdoshiga **nowkaretam** “نوڪوٽم”, **chakeretam** “چڪوٽم”, **kuchiketam** “ڪوچيڪٽم” (Men sizning qulingizman, navkaringizman, kichigingizman) deb aytilishi haqiqatdan ham xushomad, yoki aks ma’noni ham bildirishi mumkin.

Aynan huddi shu ma'noni anglatadigan iboralar o'zbek tilida ham uchrasa-da, hozirgi o'zbek oddiy so'zlashuv uslubida uslubda ko'p qo'llanilmaydi. Nasriy va nazmiy asarlarda, tarixiy badiiy adabiyotlarda suhbatdoshni ko'kga ko'tarib, o'zini yerga urish ma'nosidagi frazalar va jummalarni uchratamiz. Bu qoida tarixiy davrlarda xushxulqlik, ziyolilik belgisi bo'lganini anglash mumkin. Masalan: **“Qulingizning gustahligini afv eting, begim”** (P.Qodirov) (kamtarlik qilish)

Bugungi kunga kelib, suhbatdoshga yoki 3-shaxsga nisbatan ulug'lash xushomadi qo'llanilsa, bu sarkazm yoki hazil ma'nosida qabul qilinishi mumkin. Masalan: **Janobi oliylari yana nimalarni xohlaydilar?** (suhbatdoshni ulug'lash)

Qachon endi tashrif buyurasiz, hazrat. (suhbatdoshni ulug'lash)

Biz faqiru fuqarolar sizdek bo'lishimizga yo'l bo'lsin. (kamtarlik qilish)

Yapon madaniyatida esa, o'zi uchun hurmat darajasining eng quyi ko'rinishida, suhbatdoshga baland hurmat darajada murojaat qilish asrlar davomida davom etib kelib, bu xususiyat yapon xalqining “tashrif qog'ozi”ga aylangan desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

Fors	O'zbek	Yapon
nowkaretam “نوڪوئتم”	Biz faqiru fuqarolar	わたくし[watakushi]

Fors, o'zbek, yapon tillaridagi o'xshash misollarni ko'rib chiqamiz:

Fors tilida:

A: kojain, kam peidain. “كچاين كچي پيدايان.” (Qayerladasiz? Kamnamosiz?)

B: ma zire paye shomaim. “ما زير پاي شومام.” (Oyog'ingiz ostidamiz.)

O'zbek tilida:

A: Bormisiz? Ko'rinmaysiz?

B: Yuribmiz-da bir chetda. (panada)

Yapon tilida:

A: おひさしぶりです。お元気ですか。 [ohisashiburi desu. Ogenki desuka]

B: おひさしぶりです。おかげさまで元気です。 [ohisashiburi desu.

Okagesamade genki desu]

Fors	O'zbek	Yapon
ma zire paye shomaim. “ما زير پاي شومام” _(Oyog'ingiz ostidamiz.)	Yuribmiz-da bir chetda. (panada)	おかげさまで元気です。(okagesamade genki desu) Siz tufayli salomatman.

Fors tilida o'zini pastga urish holati o'zbek va yapon tilidagidan ko'ra kuchliroqligini guvohi bo'lamiz. Bu holatda har 3 mamlakatda pozitiv Politeness ustun kelayotganini (ma'qullanishga urinish) kuzatamiz. Kamtarlik fors tilida “shekasteh nafsi” deb nomlanib, so'zlovchining maqtov holatida o'z iste'dodi, fazilatleri, yutuqlarini inkor etibsh yoki o'zini pastga urish va suhbatdoshdan ham huddi shuningdek kamtarlikni kutish bilan ifodalanadi. Masalan: **A: Shoma kheili ghashang harf mizani! Siz juda chiroyli gapirar ekansiz. B: Injor ke shoma migi nist! Unday emas. (Siz aytayotganingdek emas).**

O'zbek xalqi maqtov qabul qilgach, maqtagan kishia rahmat aytadi.

-Ochilib ketibsiz. -Rahmat. O'zingiz ham (qolishmaysiz).

(maqtovga javob-rahmat aytish- qayta mulozamat, o'zini pastga urmaslik)
So'rovnomada 80% ishtirokchi mazkur javobni tanlagan.

Fors tilida huddi shunday jumlaning tahlil qilamiz.

A: ! امرۆخى لى خوش گل شدى! Vay! Emroz kheili khoshgel shodi! (O! Naqadar go'zalsiz bugun.) B: مېن مېتىق شىن گىمىن ە. Mersi. Cheshmat ghashang mibine! (sizning ko'zingiz chiroyli ko'ryapti.)

(maqtovga javob:rahmat aytish; qayta balandroq mulozamat; kamtarlik qilish)

Yapon tilida: きれいですね。(Chiroylisiz!) いいえ、いいえ。そんなことはないです。(Yo'q, yo'q, aslo unday emas.) (maqtovni rad qilish)


Xushomad, maqtov mavzusiga xulosa qilsak, eng pozitiv feys yapon madaniyatida, negativ feys o'zbek madaniyatida ko'rildi. Eron madaniyatida maqtovga tashakkur aytilsa ham, ortidan suhbatdoshni ulug'lab, o'zini kamtar tutish jumlasini qo'llaniladi. O'zbeklarda ba'zan "rahmat" bilan cheklanishlarini ham kuzatuvlar va so'rovnomalar orqali aniqladik. Yaponlarda esa "rahmat" aytish manmanlik belgisi bo'lib, "maqtovni inkor qilish" Politeness belgisidir. Bu holat o'zbek va forslar uchun "fikrim inkor qilindi" kabi o'ylarni ham keltirishi mumkin. Yoki o'zbeklarning "rahmat"i, yapon va forslarda "manman ekan" degan fikrni berishi, madaniy dunyoqarash xatosi tufayli OAV yoki boshqa resurslarda o'zbek madaniyati haqida noto'g'ri ma'lumot berilishi mumkin.

Savdo sotiqdagi suhbat Tsukuba universitetida tahsilim davomida Yaponiyaning savdo rastalariga borib, u yerdagi suhbatni jonli kuzatar ekanman, doim bir hil "shablon" iboralar qo'llanilishi kuzatildi.


【いらっしゃいませ。】 (irasshaimase) Xush kelibsiz. 「お会計は。。。円でございます」 (okaikeiwa ...en desu) Sizdan ...iyena. 「またお越しくださいませ。」 (mata okoshi kudasaimase) Yana tashrif buyuring.

So'rovnoma savoli: Siz do'konga kirdingiz. Sotuvchi sizga nima deydi?


Yaponlarda: 90% Xush kelibsiz [irashshaimase]; 8% Xush kelibsiz. Nima qidirapsiz? [irashshaimase. Naniga osagashi desuka.]



Eronliklarda: 67% Xush kelibsiz, nima qidirapsiz (چى الزم داىد؟); 33% Xush kelibsiz. (ال خوش آمىد)




O'zbeklarda: 39% Assalomu alaykum; 35% Keling, nima kerak ekan; 20% Xush kelibsiz.



Eronliklar ($\approx 70\%$) va yaponlar (90%) bergan javoblarda sotuvchi tomonidan “xush kelibsiz” deb aytilishi katta ko’rsatkichda kuzatildi. O’zbeklarda esa bu ko’rsatkich eng kam (20%) miqdorni tashkil qilishidan aniqlash mumkinki, o’zbeklarda negativ feys; yapon va forslarda pozitiv feysga ehtiyoj bo’ladi. “Keling, nimalar qidiraysiz?” savolida ikkinchi insonga bosim o’tkazish xarakteri mavjudligi tufayli yaponlarda bu ibora imkon qadar qo’llanilmaydi. (10%) bunda negativ feys namoyon bo’ladi; o’zbeklarda (35%) o’rta darajada va forslarda ($\approx 70\%$) juda yuqori darajada “ma’qullanish ehtiyoji” ya’ni pozitiv feys seziladi.

Mazkur savol-javobda yaponlarda “sen menga bosim qilma, men senga qilmayman” qabilida ko’rinadigan negativ feys, o’zbeklarda o’rta darajada, forslarda yuqori darajada “men sizga yoqishni istayman. Siz bilan muloqotga kirishhsam deyman” qabilida xushmuomalalikning pozitiv feys ko’rinishi aniqlandi.

Koutelakining yozishicha, Eronda xushmuomalalik (Taarof) ning yana qiziq bir jihati, u ataylab suhbatdoshni xushomad, mulozamat so’zlarga ko’rib tashlab, kishi bilmas o’zini aytganini qildirayotganini sezish mumkin. Masalan, siz sotuvchi yoki taksichidan narhni so’radingiz. U sizga “**qabeli nadare** قباله ندادره” deb, ya’ni “arzimaydi. (bermasangiz ham mayli)” deb javob beradi.



Bu albatta xaridor uchun bo'lgan odob, hurmatni ifodalash bilan birga, xaridorni savdolasholmaydigan holatga tushirib, o'zi istagan narhdagi pulni olish maqsadida ham ifodalanadi. Bu fanda “safety valve” (xavfsizlik klapani) deyiladi.¹¹

Yuqorida keltirigan so'rovnomadan ko'rish mumkinki, 100% eronliklar pul olayotib **قېلىن دارة** deb javob beradilar.

Bu holat o'zbeklar bilan bo'lsa, “mulozamat”, “sohta takalluf” ekanligini tushunish mumkin. Ammo, yaponlarga **قېلىن دارة** deb aytilsa, ular to'g'ridan to'g'ri tushunib, anglashilmovchilikga duch kelishlari mumkin.

Eron ham o'zbek xalqi ham yaponlar ham mulozamat iboralarni har kuni qo'llaydilar. Xushomad mavzusida o'ranilganda, fors tilida suhbatdoshni maqtash va o'zini pastga urish fors va yapon tillarida kuchli sezilsa, o'zbek tilida o'zini yerga urish deyarli sezilmadi, faqat suhbatdoshni maqtash holatini kuzatdik.

XULOSA. Fors, o'zbek va yapon tillarida tinglovchi va gapiruvchining ijtimoiy mavqei, yoshi hisobga olinib munosabat bildirilishi, muloyimlik, xushmuomalalik, hurmatni ifodalash uchun maxsus vositalar mavjudligi kuzatilib, tadqiqot o'z oldiga qo'ygan maqsadi – bu tillardagi o'xshash va farqliklar, o'ziga xos jihatlar kabi nyuanslarni aniqlagan holda, suhbatdoshlarning o'zaro muoqotda anglashilmovchiliklardan holi, hotirjam va qulay his qilishlarini ta'minlash maqsadida nazariy va amaliy izlanishlar amalga oshirildi.

Nazariy manbalar tadqiq qilinish natijasida, mazkur mavzu sharqda, ayniqsa, Eron va O'zbekistonda juda kam o'rganilgan soha bo'lib, G'arb olimlarining ilmiy ishlari salmog'i ancha muhim ahamiyatga egaligi aniqlandi.

Fors taorifi pozitiv feysni aks ettirish, insonlar o'zlarini yaxshi his qilishlarini ta'minlash, o'zgalarda yaxshi taassurot qoldirishga intilish, xoxishga ko'ra yoki xohishga qarshi ravishda shunchaki xalq qadriyatlariga yo'g'rilgan taorif qoidalariga amal qilish, hamda, suhbatdosh o'z xohishini amalga oshirish uchun taorif qo'llab, ikkinchi suhbatdoshni noqulay vaziyatga solish holatlarini namoyon qildi.

O'zbek xushmuomalaligining maqsadi ham insonlarda ijobiy taassurot uyg'otish, o'ziga emas boshqalarga qulaylikni afzal ko'rgandek qilib ko'rsatish, xalq qadriyatlaridagi xushmuomalalikni samimiy yoki sohta tarzda qo'llashdan iboratdir.

¹¹ Koutlaki, S. (1997), Persian system of politeness and the Persian concept of face with some reference to EFL teaching to Iranian native speakers. University of Wales.

Yaponlarda o'ta kamtarlik, bosim o'tkazmaslik va bosimda qolmaslik, hammaning hayoti o'ziga tegishli bo'lgani uchun tashqi aralashuvlarni qabul qilmaslik tushunchalari yetakchilik qilib, ko'proq negativ xushmuomalalikni ifoda etadilar. O'zbeklar va eronliklar muloqotida pozitiv xushmuomalalik yetakchilik qilgan holda, suhbatda hazilomuz mavzular, tabiiy va soxta mulozamatning ko'pligi, do'stona muhit yaratish maqsadida suhbatdoshni suhbatga chorlash holatlari tadqiqot kuzatuvlarida va so'rovnoma natijalariga ko'ra aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Arndt, H. & Richard J. Verbal, prosodic, and kinesic emotive contrasts in speech. *Journal of Pragmatics* 15:521-549. 1991. <http://article.sapub.org/10.5923.j.linguistics.20130202.02.html>
- Azadeh Sharifi, Leyla Yazdanpanah, Vahideh Abolhassanizadeh. The analysis of Persian Address terms based on the theory of Politeness.2013. www.skase.sk/volumes/JTL24/pdf_doc/04.pdf
- Brown, H. D. (2000). *Principles of language learning and teaching*. New Jersey: Prentice-Hall, Inc.
- Fraser (1990) ("Perspective on Politeness.") *Journal of Pragmatics* 1, 2190-236.
- Hudoynazarov I. Sotsiolingvistika. Qarshi 2008.
- Husanov, G'ulomov. Culture of communication. Uzbekistan State National University. 2009.
- Jiang Zhu and Yuxiao Bao. (2010). The Pragmatic comparison of Chinese and Western Politeness. *Journal of Language Teaching and Research*. Finland: Academy Publisher.
- Kasper, G. (1990). Linguistic politeness: Current research issues. *Journal of Pragmatics*.
- Keshavarz, Mohammad Hosein. 1988. Forms of address in post-revolutionary Iranian Persian: A sociolinguistic analysis. In *language and society*, 1988, vol. 17, pp. 565-575.
- Kindaichi, K. (1959). *Nihon no kēgo* [Japanese honorifics]. Tōkyō: Kadokawa Shoten. http://docs.lib.purdue.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1309&context=open_access_theses
- Koutlaki, S. (1997), Persian system of politeness and the Persian concept of face with some reference to EFL teaching to Iranian native speakers. University of Wales.
- Leech, G. N. (1983). *Principles of Pragmatics*. London and New York: Longman.
- Muminova Aziza Arslonovna. Uzbek Speech Etiquette: 'You' Expressing Politeness and Affection. (*Узбекский Речевой Этикет: Вестник Российского университета дружбы народов*).
- Nanbakhsh, Golnaz. 2011. Persian address pronouns and politeness in interaction. Dissertation paper. Edingburgh. 2011.
- Nanbakhsh Golnaz. 2012. The role of social context, intimacy and distance in the choice of forms of address. *International journal of social language*, 2012 vol. 148, pp. 5-18.
- Nishida, N. (2004). Kēgoshi to gendaikēgo. In Y. Kikuchi (Ed.), *Asakura nihongo kōza* 8 (pp.225-243). Tōkyō: Asakura Shoten. http://docs.lib.purdue.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1309&context=open_access_theses
- Parvaresh and Eslami. (2009). Speech act disagreement among young women in Iran. *Comparative literature and Culture* 11(4), 2-8.
- <http://sachikoide.com/bibliography/> Sachiko Ide and Guoyue Peng. (1996) Linguistic politeness in Chinese, Japanese and English from a Socio Historical Perspectives.
- Sanada, S. (1993). The dynamics of honorific behavior in a rural community in Japan. *Multilingual-Journal of Cross-Cultural and Interlanguage Communication*, 12(1), 81-94.
- Saeedeh Shafiee Nakhrkhalaji, Mahboubeh Khorasani, Morteza Rashidi Ashjerdi. Gendered Communication in Iranian University classrooms: The relationship between Politeness and silence in Persian culture. 2013. www.ijscel.net
- Sahragard. A cultural script of a Politeness feature in Persian. University of Leicester. 2000.
- Sharifian, F. (2007). L1 cultural conceptualizations in L2 learning: The case of Persian-speaking learners of English. In F. Sharifian and G.B. Palmer (Eds.), *Applied Cultural Linguistics* (pp. 33-53). Amsterdam: John Benjamins.
- Tujimura, T. (1977). *Nihongo no kēgo no kōzō to tokushoku*, In S. Ōno & T. Shibata (Eds.), *Iwanami Kōza Nihongo* 4: Kēgo (pp. 45-94). Tōkyō: Iwanami Shoten.
- Turdieva Khulkar Kamilovna. The pragmatic comparison of Japanese and Uzbek Politeness in cross cultural communication. "Ayol va zamon" (Woman and time) conference. Tashkent state institute of oriental studies. 2018.
- 小野正樹. 日本語教育原論. 日本語の敬語の変化. 筑波大学. 2016年12月14日.
- 小野正樹 / 編 李奇楠 / 編. 言語の主観性 認知とポライトネスの接点. 2016年6月.
- 言語行動における配慮の諸相 (Various aspects of consideration in verbal behavior. 国立国語研究所 (National Institute for Japanese Language) 2006.
- 井出幸子 (2006) わきまえの語用論. 東京 Pages pp.76-77.

- Сен (Ты), Сиз (Вы, Вы)). Uzbek State World Languages University.
<http://cyberleninka.ru/article/n/uzbekskiy-rechevoy-etiket-sen-ty-siz-vy-vy>
- <https://www.youtube.com/channel/UCZWkcTIGDg5gHyafm2M4Pig> UzbekFilmsHD